

Buxoro viloyatida bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2026- yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-iyul oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **30 460,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-iyul oylari bilan solishtirganda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining real o'sishi **16,5** %ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **24 673,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil mos davri bilan solishtirganda **11,8** %ga o'sdi. Mazkur press-relizda keltirilgan ma'lumotlar dastlabki hisoblanib, qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushishiga qarab keyingi nashrlarda aniqlashtirilishi mumkin.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'ati
yanvar-iyul



II. Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi o'zgarishi

2026- yilning yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **29,2** %ni (**8 882,7** mlrd. so'm) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-iyul oylari bilan solishtirganda real o'sish indeksi **125,4** %ni tashkil etdi. Shuningdek, shahar va tumanlar kesimida eng yuqori hajm G'ijduvon (**2 215,9** mlrd. so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **7,3** %ini egalladi), Vobkent (**1 315,7** mlrd. so'm, ya'ni **4,3** %), Romitan (**1 049,7** mlrd. so'm, ya'ni **3,4** %) va Buxoro tumanlarida (**994,7** mlrd. so'm, ya'ni **3,3** %) kuzatildi. Qorovulbozor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **354,1** mlrd. so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,2** %ini tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Buxoro viloyati ¹	30 460,5	100,0	116,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	620,2	2,0	114,4
Buxoro	994,7	3,3	116,7
Vobkent	1 315,7	4,3	114,8
G'ijduvon	2 215,9	7,3	116,2
Kogon	596,7	2,0	110,6
Qorako'l	795,9	2,6	114,3
Qorovulbozor	354,1	1,2	116,7
Peshku	852,4	2,8	113,7
Romitan	1 049,7	3,4	114,2
Jondor	967,7	3,2	114,3
Shofirkon	790,0	2,6	114,6
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro shahri	8 882,7	29,2	125,4
Kogon shahri	685,3	2,2	115,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2026- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori real o'sish indeksleri Qorovulbozor tumanidan tashqari viloyatning boshqa shahar va tumanlarida, xususan, Buxoro (**125,4 %**) va Kogon (**115,4 %**) shaharlarida, Buxoro (**116,7 %**), G'ijduvon (**116,2 %**), Vobkent (**114,8 %**), Shofirkon (**114,6 %**), Olot (**114,4 %**), Qorako'l (**114,3 %**) tumanlarida kuzatildi.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida Buxoro viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **14 421,9** ming so'mni, 2025- yil yanvar-iyul oylarida esa **11 844,2** ming so'mni tashkil etdi. Real o'sish sur'ati **114,9 %** darajasida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, **29 085,4** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-iyul oylari bilan solishtirganda **6 836,8** ming so'mga oshdi. Shuningdek, Qorovulbozor tumani (**17 104,9** ming so'm), Kogon shahri (**10 352,3** ming so'm) nisbatan yuqori darajada shakllandi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (**4 157,9** ming so'm) qayd etildi.

¹shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2026- yil yanvar-iyul

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
Buxoro viloyati	14 421,9	114,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	5 763,5	112,8
Buxoro	5 356,7	114,6
Vobkent	8 510,7	112,7
G'ijduvon	6 658,5	114,7
Kogon	6 757,8	108,6
Qorako'l	4 501,5	112,9
Qorovulbozor	17 104,9	115,0
Peshku	6 262,8	111,9
Romitan	6 746,1	113,0
Jondor	5 032,2	112,5
Shofirkon	4 157,9	113,8
<i>shaharlar:</i>		
Buxoro shahri	29 085,4	123,7
Kogon shahri	10 352,3	114,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yuqori o'sish sur'ati Qorovulbozor tumanida (**115,0 %**) qayd etildi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning yuqori o'sish sur'ati G'ijduvon (**114,7 %**), Buxoro (**114,6 %**) tumanlarida hamda Buxoro (**123,7 %**) va Kogon (**114,5 %**) shaharlarida qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **21 615,5** mlrd. so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **71,0 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-iyul oylari bilan solishtirganda **121,9 %**ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Kogon (**86,9 %**), G'ijduvon (**84,9 %**), Vobkent va Buxoro (**84,2 %**), Olot (**82,5 %**), Jondor (**79,2 %**) tumanlarida hamda Kogon shahrida (**78,0 %**) kuzatilmoqda. Bu esa mazkur shahar va tumanlarda xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik tadbirkorlik subyektlari muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Buxoro shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**51,4 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi viloyat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **4 568,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qorovulbozor tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi boshqa shahar va tumanlarga nisbatan birmuncha past bo'lib, 2026- yilning yanvar–iyul oylarida **178,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd. so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Buxoro viloyati	21 615,5	71,0	121,9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	511,5	82,5	116,2
Buxoro	837,4	84,2	119,4
Vobkent	1 107,6	84,2	188,5
G'ijduvon	1 880,8	84,9	119,3
Kogon	518,6	86,9	116,8
Qorako'l	616,8	77,5	116,0
Qorovulbozor	178,0	50,3	110,4
Peshku	564,0	66,2	109,5
Romitan	792,7	75,5	117,3
Jondor	766,0	79,2	113,6
Shofirkon	619,1	78,4	115,2
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro shahri	4 568,1	51,4	140,3
Kogon shahri	534,9	78,0	123,1

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2026- yilning yanvar–iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib savdo, moliyaviy hamda transport xizmatlari hajmining ortishi hisoblandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, sohani rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan hamda ularning monitoringini yuritish ko'zda tutilgan.

2026- yilning yanvar–iyul oylari ma'lumotlaridan boshlab, savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlari xalqaro ekspertlar tavsiyalari va xalqaro statistik standartlarga muvofiq, qayta sotish uchun mo'ljallangan tovar zaxiralari o'zgarishini hisobga olgan holda shakllantirilmoqda.

Ko'rsatkichlarning o'zaro taqqoslanuvchanligini ta'minlash maqsadida, mazkur press-relizda o'sish sur'atlarini hisoblash uchun foydalanilgan 2025- yil yanvar–iyul oylaridagi bazaviy ma'lumotlar ham aynan shu usul qo'llangan holda qayta hisoblab chiqildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga eng katta hissa savdo xizmatlari (o'sishi **20,6** %ga, umumiy o'sishga **5,6** foiz band hissa qo'shdi), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**14,7** %ga, **5,3** f.b.), transport xizmatlari (**16,2** %ga, **3,3** f.b.), moliyaviy

xizmatlar (**13,7** %ga, **1,7** f.b.), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**9,2** %ga, **0,2** f.b.), boshqa xizmatlar (**14,4** %ga, **0,1** f.b.), va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**20,4** %ga, **0,1** f.b.) o'sishi hisobiga to'g'ri keldi.

Mazkur press-relizda keltirilgan va qayta ko'rib chiqilgan 2025- yilgi qiyosiy ko'rsatkichlar savdo xizmatlari hajmini hisoblashning yangilangan uslubiyotini o'z ichiga oladi, shu sababli ulardan 2026- yilning yanvar–iyul oylari bilan yillik ifodada taqqoslash uchun foydalanish lozim.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlari **29,0** %, yashash va ovqatlanish xizmatlari **24,5** %, transport xizmatlari **16,4** %, moliyaviy xizmatlar **11,0** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar **3,8** %, boshqa xizmatlar **3,3** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,1** % ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2025- yil	2026- yil	
Xizmatlar – jami	24 673,9	30 460,5	116,5
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	730,8	935,7	120,4
moliyaviy xizmatlar	2 929,6	3 354,1	113,7
transport xizmatlari	3 910,1	5 002,4	116,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>3 543,3</i>	<i>4 625,0</i>	<i>115,7</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 065,7	7 479,3	114,7
savdo xizmatlari	7 003,2	8 832,1	120,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	359,2	454,6	125,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 030,0	1 146,2	109,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	373,4	468,6	117,0
ijara xizmatlari	378,6	463,2	114,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	424,4	506,4	112,6
shaxsiy xizmatlar	461,2	566,7	113,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	185,9	234,7	112,9
boshqa xizmatlar	821,8	1 016,5	114,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi

2025- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining hajmi **1 828,9** mlrd. so'mga oshib, **8 832,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining umumiy hajmi tarkibida chakana savdo xizmatlarining ulushi ustunlik qilib, **49,3** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining ulushi esa **33,3** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha ishlab chiqarish xizmatlari, savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining umumiy hajmida **17,4** %ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlarining hajmi **1 413,6** mlrd. so'mga oshib, **7 479,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur xizmatlarning asosiy qismi oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari bilan bog'liq bo'lib, ulushi **97,1** %ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **5 002,4** mlrd. so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustun bo'lib, ulushi **92,5** %ni yoki **4 625,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining o'sishi ichki va tashqi savdo faolligi, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida yuk va yo'lovchi tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlarining alohida turlari bo'yicha xizmatlar hajmi, mlrd.so'm
2026- yil yanvar-iyul




2025- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda moliyaviy xizmatlar hajmi **424,5** mlrd. so'mga oshib, **3 354,1** mlrd. so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-iyul oylari bilan solishtirganda **113,7** %ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **93,0** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **4,6** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **2,4** %ni tashkil etdi.

2026- yilning hisobot davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **935,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur soha tarkibida telekommunikatsiya xizmatlari eng katta ulushga ega bo'lib, **67,0** %ni qayd etdi. Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida kompyuter dasturlashtirish xizmatlari ulushi **24,7** %ni, axborot xizmatlari **5,1** %ni, nashriyot xizmatlari **2,3** %ni hamda boshqa xizmatlar **0,9** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi

yanvar-iyul, mlrd. so'mda



Sohada kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining yuqori ulushi yangi AT-klaster shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu esa yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan samarali ish o'rinlarini yaratish bilan birga, ayniqsa autsorsing xizmatlari va dasturiy ta'minot ishlab chiqish yo'nalishida eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 146,2** mlrd. so'mni tashkil etdi, uning tarkibida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar (**62,6** %) ustunlik qildi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi **454,6** mlrd. so'mni tashkil etib, uning tarkibida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **97,3** % darajasida qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **468,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **39,2** %ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **30,9** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **10,7** %ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Press-relizda keltirilgan ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Ma'lumotlar dastlabki hisoblanib, keyingi nashrlarda ularga aniqliklar kiritilishi mumkin.

Bozor xizmatlari hajmi va ularning ulushi joriy narxlarda keltirilgan.

O'sish sur'atlari tegishli narxlar va tariflar indekslaridan foydalangan holda taqqoslama narxlarda hisoblangan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi har oylik telefon so'rovnomalari, choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Agar xizmatlar real oldi-sotdi obyekti bo'lsa va ularning narxi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ulgurji va chakana savdo korxonalari uchun ishlab chiqarish hajmi tovarlarni qayta sotishdan tushgan tushum va ularni sotib olish xarajatlari o'rtasidagi farq hamda qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar zaxirasidagi o'zgarishlar yig'indisi sifatida aniqlanadi (*Eurostat, Handbook on prices and volume measures in national accounts, 2016 edition*).

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa) shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tranzaksiya sanasida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Handbook on prices and volume measures in national accounts

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 200100, Buxoro,
Gazli shoh ko'chasi, 32
Pochta: info@buxstat.uz
Tel.: 65-505-80-00

